

## **TURK TILSHUNOSLIGIDA FITOMORF FRAZEOLOGIZMLARNING O‘RGANILISH TARIXI**

**Shukurxo‘jayeva Roziyaxon Zaynobddin qizi**

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Turkshunoslik oliy maktabi

Lingvistika (turk tili) yo‘nalishi 1-kurs

Magistranti

[roziyaxonshukurxojayeva@gmail.com](mailto:roziyaxonshukurxojayeva@gmail.com)

+998887805001

**Ilmiy rahbar: Phd, Zebo Salimova**

### **ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqolada turk tilshunosligida fitomorf frazeologizmlarning o‘rganilish tarixi yoritiladi. Fitomorf frazeologizmlar o‘simlik nomlari asosida shakllangan barqaror iboralar sifatida talqin etiladi. Maqolada ularning kelib chiqishi, semantik xususiyatlari va qo‘llanish doirasi tahlil qilinadi. Turk tilshunosligida bu birliklarni o‘rganish dastlab etnolingvistik tadqiqotlar bilan bog‘liq holda boshlanganligi ko‘rsatiladi. Keyingi bosqichlarda frazeologik tizim doirasida ularning o‘rni aniqlangan. Muallif turli davrlarda olib borilgan ilmiy izlanishlarni qiyosiy tahlil qiladi. Fitomorf frazeologizmlarning milliy madaniyat va dunyoqarashni aks ettirishdagi ahamiyati ochib beriladi. Shuningdek, ularning obrazlilik va ekspressivlik xususiyatlari alohida ta’kidlanadi. Maqolada turk va boshqa turkiy tillar materiallari asosida misollar keltiriladi. Tadqiqot natijalari frazeologiya va lingvokulturologiya sohalari uchun muhim ekanligi bilan ahamiyatlidir.*

**Kalit so‘zlar:** fitomorf, frazeologizm, turk, olimlar, lingvistika.

### **ABSTRACT**

*This article examines the history of studying phytomorphic phraseological units in Turkic linguistics. Phytomorphic phraseologisms are interpreted as fixed expressions based on plant names. The paper analyzes their origin, semantic features, and spheres of usage. It is shown that their study in Turkic linguistics initially emerged within ethnolinguistic research. In later stages, their place within the phraseological system was defined. The author provides a comparative analysis of studies conducted in different periods. The significance of phytomorphic phraseologisms in reflecting national culture and worldview is revealed. Special attention is paid to their imagery and expressiveness. Examples from Turkic languages are presented in the article. The findings are important for the fields of phraseology and linguoculturology.*

**Keywords:** *phytomorph, phraseologism, Turkish, scholars, linguistics.*

### АННОТАЦИЯ

*В данной статье рассматривается история изучения фитоморфных фразеологизмов в тюркском языкознании. Фитоморфные фразеологизмы трактуются как устойчивые выражения, основанные на названиях растений. Анализируются их происхождение, семантические особенности и сферы употребления. Показано, что изучение этих единиц в тюркском языкознании первоначально было связано с этнолингвистическими исследованиями. На последующих этапах была определена их роль в системе фразеологии. Автор проводит сравнительный анализ научных работ различных периодов. Раскрывается значение фитоморфных фразеологизмов в отражении национальной культуры и мировоззрения. Особое внимание уделяется их образности и экспрессивности. В статье приводятся примеры на материале тюркских языков. Результаты исследования имеют важное значение для фразеологии и лингвокультурологии.*

**Ключевые слова:** *фитоморф, фразеологизм, тюркский, учёные, лингвистика.*

### KIRISH

Bugungi kun tilshunosligida frazeologiyaga oid birliklarni antroposentrik jihatdan o‘rganish muhim ilmiy yo‘nalish hisoblanib, filologiya sohasida juda muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda. Shu tufayli ham o‘simlik nomlari ishtirokida shakllangan frazeologik birliklar, ya’ni fitomorf frazeologizmlar, insoniyatning o‘tmish tajribasi, milliy va madaniy qadriyatlarini, ong-u tafakkurini namoyon qiluvchi lingvistik birliklarning eng muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Turk tilshunosligida aynan o‘simlik nomlari ishtirokida vujudga kelgan mazkur birliklarning o‘rganilishi frazeologiya bo‘limining rivoji uchun ulkan hissa qo‘shishi shubhasiz.

**Fikr va mulohaza.** Turk tilshunosligida fitomorf frazeologizmlarning o‘rganilishi avvaliga mustaqil ravishda emas, balki xalq og‘zaki ijodi va tarixiy asarlar asosida amalga oshirilgan. Bunga misol sifatida, Mahmud Qoshg‘ariyning “Devoni lug‘otit turk” asarida fitomorf komponentli metaforik birliklar turkiy tillarning eng qadimgi va eng qimmatli leksik manbasi sifatida alohida o‘rin olganligini ta’kidlab o‘tish joiz. Ushbu birliklar turkiy xalqlar turmush tarzining azal-azaldan tabiat bilan uzviy bog‘liq ekanligini, obrazli tafakkurining nihoyatda boyligini namoyon qiladi. Devondagi fitomorf komponentli birliklarning ahamiyatli jihati shundaki, ular metaforik ma’noda qo‘llanilgan bo‘lib, haqiqiy o‘simlik nomi

orqali abstrakt tushunchalar ifodalanadi. Masalan, “ildiz” tushunchasi nasl-nasab, mustahkamlik va kelib chiqishni bildirsa, “quruq” yoki “so‘lg‘in” o‘simlik obrazi tanazzulni ifodalab keladi.

**“Tamur” (ildiz) bilan bog‘liq frazeologik birlik:**

“Tamurin kesgen yigach qurur”<sup>1</sup>. Ildizi kesilgan daraxtning qurishi, asosdan ayrilgan narsa hech qachon barqaror bo‘lolmasligiga ishora sifatida keltirilgan.

Turkshunoslik sohasida o‘simlik nomlariga asoslangan juda ko‘p tadqiqotlar olib borilgan: E.R. Axmetova,<sup>2</sup> N.B. Burganova,<sup>3</sup> Yu.Dmitriyeva,<sup>4</sup> A.S.Yefremov,<sup>5</sup> B.K.Kaliev,<sup>6</sup> G.I.Uyukbaeva,<sup>7</sup> V.V.Nikitin, B.B.Kerbabaev,<sup>8</sup> B.Sh.Zagulyayevalar,<sup>9</sup> A.M.Grebneva,<sup>10</sup> L.V.Dmitrieva<sup>11</sup> shular jumlasidandir.

Umumiy olib qaraganda, frazeologizmlar mavzusi doirasida tadqiqot olib borgan bir qancha turk tadqiqotchi olimlari fitomorf komponentli birliklarni o‘z tadqiqotlarining bir bo‘lagi sifatida shakllantirgan. Turk tilshunosligida frazeologik birliklarni, xususan fitonim komponentli frazeologizmlarni o‘rganish XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab tez suratlarda rivolana boshladi. Bu jarayon avvalo umumiy frazeologiya doirasida kechgan bo‘lsada, keyinchalik semantik, strukturaviy va lingvokulturologik jihatdan keng tarzda o‘rganildi.

Jamiyatlarning yashab turgan geografik muhiti, turmush tarzi hamda ular mansub bo‘lgan moddiy va ma’naviy madaniyat unsurlari lug‘at tarkibining shakllanishiga ta’sir ko‘rsatadi. Madaniyatning shakllanish jarayonida fauna (hayvan) tizimi qanchalik muhim bo‘lsa, flora (bitki) tizimi ham shunchalik muhim o‘rin egallaydi. Turk tilida o‘simlikshunoslikka oid birliklar ham turk tilining lug‘at boyligining asosiy tarkibiy qismlaridan biridir. Turk tilida o‘simlik nomlari yuzasidan diaxron va sinxron yondashuvlar asosida ko‘plab tadqiqotlar amalga oshirilgan (Önler, 1990; Baytop, 2007; Alkayış, 2007; Uç, 2009; Doğan, 2011; Oturakçı, 2012,

<sup>1</sup> М. Кошғарий. Девону луғотит турк: 3 жилдли. – Тошкент: Фан, 1960–1963. – Б. 45.

<sup>2</sup> Ахметова Э. Названия овощей и фруктов в татарском языке // Автореф. канд. филол. наук – Казань, 2012. - С.29.

<sup>3</sup> Бурганова Н. О татарских народных названиях растений // Вопросы лексикологии и лексикографии – Казань, 1976. - С. 125-141.

<sup>4</sup> Дмитриева Ю. Названия деревьев в чувашском языке // Проблемы исторической лексикологии чувашского языка. – Чебоксары, 1980. - С. 28-36.

<sup>5</sup> Ефремов А. Названия растений марийского языка: (травянисто-ягодная флора) // Автореф. Дисс. канд. филол. наук. – Таргу, 1986. - С.16

<sup>6</sup> Калиев Б. Названия растений в казахском языке // Автореф. Дисс. д-ра филол. наук. – Алма-Ата, 1991. - С. 12

<sup>7</sup> Уюкбаева Г. Народные наименования растений в казахском языке // Автореф. Дисс. канд. филол. наук. – Алма-Ата, 1983

<sup>8</sup> Никитин В., Кербабаяев Б. Народные и научные туркменские названия растений. – Ашхабад: Наука, 1962.

<sup>9</sup> Загуляева Б. Названия растений в удмуртских диалектах // Вопросы диалектологии и лексикологии удмуртского языка. – Ижевск, 1990. - С. 39-52.

<sup>10</sup> Гребнева А. Флористическая лексика мордовских языков // Автореф. Дисс. канд. филол. наук. – Саранск, 1984.

<sup>11</sup> Дмитриева Л. Названия растений в тюркских и других алтайских языках // Очерки сравнительной лексикологии алтайских языков. – Ленинград, 1972. - С. 151-223.

Uçar, 2012, 2013; Şahin, 2016; Özden, 2019). O‘simlikshunoslik bilan bog‘liq tushunchalar keng qamrovli konseptual maydon sifatida lug‘atshunoslik tadqiqotlarining asosiy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi<sup>12</sup>.

Vecihe Hatipoğlu ta’kidlashicha, *deyim* — bu ifoda kuchini oshirish maqsadida, ma’lum darajada mantiqiy normalardan chekinadigan so‘zlar tarkibida, ba’zilari o‘zgarimas qolib, ba’zilari esa o‘zgarib qo‘shimchalarga kiradigan turg‘un birliklardir<sup>13</sup>.

Ömer Asım Aksoyning ta’kidlashicha, *deyim* — bu jozibador ifoda shakliga ega bo‘lgan va aksariyatining asl ma’nosidan alohida, qo‘shimcha ma’nosi mavjud bo‘lgan turg‘un so‘z birikmalaridir<sup>14</sup>.

BAAD, TDK Derleme va Tarama kolu tomonidan to‘plangan maqol va iboralar hamda Ö.A. Aksoy’ning *Gaziantep Ağzı* nomli asarining ikkinchi jildida o‘rin olgan maqol va iboralarning bir joyga jamlanishi asosida shakllantirilgan. Mazkur tadqiqot dastlab 1969-yilda bir jildli nashr sifatida chop etilgan, 1971-yilda esa birinchi nashrga kiritilmagan maqol va iboralarni o‘z ichiga olgan qayta nashri amalga oshirilgan. Asarning ikkinchi nashri 1996-yilda ikki jild ko‘rinishida e’lon qilingan va BAAD 2019-yilda TDK nashrlari qatorida yana bir jildli shaklda chop etilgan (Aksu, Akalın, Toparlı, 2022: 73; BAAD, 2023: 7). BAADning bir jildli yangi nashrlarida (2019, 2023) shevalarga xos ayrim talaffuz variantlarining, masalan, *elma / alma, soğan / sovan, sümbül / sünbül* kabi shakllarning adabiy til me’yorlariga muvofiq tarzda tartibga solingani kuzatiladi. Mazkur tadqiqotda shevalarga xos xususiyatlarni saqlab qolgan 1996-yilgi nashr asosiy manba sifatida qabul qilingan<sup>15</sup>.

Yuqorida nomlari keltirilgan turk tadqiqotchilarining frazeologizm sohasi doirasida olib borgan tadqiqotlarining bir qismi fitonim komponentli (o‘simlik nomlari) iboralarni o‘rganishga ham bag‘ishlanadi. Masalan, Ömer Asım Aksoyning — “*Atasözleri ve Deyimler Sözlüğü*” kitobida lug‘atda *elma, armut, üzüm, çınar, söğüt, soğan* kabi ko‘plab o‘simlik va meva nomlari ishtirokidagi frazeologizmlar jamlangan. Bu esa fitonim komponentli birliklarni aniqlash uchun eng muhim lug‘atlardan biridir.

Doğan Aksan esa semantika va metafora sohasini o‘rganish va tadqiq qilish jarayonida, tabiat va o‘simlik nomlarining ko‘chma, ya’ni majoziy ma’no hosil qilish sifatlariga alohida to‘xtalib o‘tadi.

<sup>12</sup> Torun Öğretmen Y. Bölge Ağzlarında Atasözleri ve Deyimler’de Bitki Bilimiyle İlgili Söz Varlığı // Çukurova Üniversitesi Türkoloji Araştırmaları Dergisi. – 2024. – 9/2. – S. 1159–1173.

<sup>13</sup> Hatipoğlu V. Türkçenin Sözdizimi. – Ankara: DTCF Yay., 1982. – S. 194.

<sup>14</sup> Aksoy Ö.A. Atasözleri Sözlüğü. – Ankara: TDK Yay., 1984. – S. 49.

<sup>15</sup> Torun Öğretmen Y. Bölge Ağzlarında Atasözleri ve Deyimler’de Bitki Bilimiyle İlgili Söz Varlığı // Çukurova Üniversitesi Türkoloji Araştırmaları Dergisi. – 2024. – 9/2. – S. 1159–1173. <https://doi.org/10.32321/cutad.1509269>

Fitomorf metafora diniy konseptual manzaraning an'anaviy va tizimli tushunchaviy sohalaridan biri sifatida e'tirof etiladi. A.P.Chudinov ta'kidlashicha, fitomorf obrazlar negizida arxetipik dunyoqarashga tayanuvchi bazaviy konseptual metaforalar mujassam bo'lib, mazkur modelga ko'ra borliqdagi har bir hodisa va mavjudot ildiz hamda meva kabi ontologik asos va natijaviylikka ega, shuningdek, muayyan urug' va don timsolidagi ibtidoiy manbadan kelib chiqish tamoyiliga bo'ysunadi<sup>16</sup>.

O'zbek va turk tillarining asosi bir ildizga ya'ni turkiy tillar oilasiga mansub ekanligi bois, o'simlik nomlari bilan bog'liq birliklarda ko'plab o'xshashliklarga duch kelamiz. Shuningdek, tarixiy revolutsiya, boshqa tillar ta'siri va madaniy sabablar tufayli farqli jihatlar ham yuzaga kelgan.

O'xshash jihatlar haqida to'xtaladigan bo'lsak:

1. Qadimgi turkiy ildizlarning yakdilligi.

Bir qancha o'simlik nomlari har ikki tilda ham umumturkiy ildizga egadir:

O'zbek tilida	Turk tilida	Izoh
Olma	Elma	Fonetik o'zgarish (o/e almashuvi)
O'rik	Kayı	To'liq o'zgarish
Terak	Kavak	Ma'no yaqinligi (daraxt turi)
Bug'doy	Buğday	Talaffuz farqi

Ushbu namunalar bir turkiy ildizga mansub ekanligi tufayli, semantik jihatdan deyarli bir xil mazmunga ega.

1. O'simlik nomlarining frazeologik birliklarda qo'llanilishi:

O'zbek tilida ham, turk tilida ham o'simlik nomlari ko'chma ma'noda keladi:

O'zbek tilida *Olma pish, og'zimga tush*, turkchasi "armut piş ağzıma düş".

*Arpasini xom o'rmoq.*

Turk tilida:

*Kabak tadı vermek. (Bir narsaning juda ko'p takrorlanib, zerikarli bo'lib qolishi)*

*Ağaç gibi dikilmek. (Qimirlamay tik turib qolmoq)*

2. O'simliklarda metaforik va ramziy timsollar.

O'simliklar ko'pincha go'zallik va yoshlik timsoli sifatida qo'llaniladi.

Gul – o'zbek tilida ham, turk tilida ham go'zallik timsoli.

*Gul/çiçek*

O'zbek tilida: "U guldek chiroyli qiz".

Turk tilida: "O çiçek gibi güzel".

<sup>16</sup>Усланова Е. М. Фитоморфная метафорика в религиозном дискурсе (на материале «Сокровища духовного, от мира собираемого» Тихона Задонского) // Вестник Костромского государственного университета. – 2017. – № 4. – С. 133.

Sarv daraxti - baland va kelishgan qomat timsoli.

Sarv/Selvi. O‘zbek tilida: “Qomati xuddi sarvdek”.

Turk tilida: “Selvi gibi boylu poslu bir kiz”.

Yoki, o‘zbek tilidagi “ildiz otmoq” iborasi bilan turk tilidagi “kök salmak” iborasi ayni bitta “mustahkam joylashish” ma’nosini anglatishi ham fitomorf frazeologizmlarning o‘xshash jihatlariga misol bo‘la oladi.

1. Leksik farqlanish

Ba’zi o‘simliklar nomi ikki tilda turlicha shakllangan:

<i>O‘zbek tilida</i>	<i>Turk tilida</i>
Sabzi	Havuç
Karam	Lahana
Ildiz	Kök
Nok	Armut

Turk tilidagi ayrim so‘zlar arab va yevropa tillaridan kirib kelgan. O‘zbek tiliga esa fors-tojik tillarining ta’siri kuchli bo‘lgan.

Shunday o‘simliklar borki, ular o‘sha tilda ko‘proq ramziy ahamiyat kasb etadi. Masalan, o‘zbek tilida chinor buyuklik, uzoq umr va mustahkamlik ramzidir. Turk tilida esa zeytin (zaytun) o‘simligi madaniy va iqtisodiy timsolga egadir.

O‘zbek adabiy tilidagi “jiyda” o‘simligi mamlakatning ayrim hududlarida “chilonjiyda”, “loxa” deb yuritiladi.

Turk tilidagi “domates” (pomidor) o‘lkaning Anadolu shevalarida “manadura” deb ham ataladi.

O‘zbek va turk tillarida o‘simlik nomlariga asoslangan birliklarni birlashtiruvchi umumiy jihatlariga yuqoridagi kabi umummilliy ildiz, o‘xshash semantika, metaforik va ramziy qo‘llanish kiradi. Farqli jihatlar esa fonetik o‘zgarish, madaniy muhit ta’siri va leksik farqlanishlarni o‘z ichiga oladi.

O‘zbek tilidagi o‘simlik komponentli frazeologizmlar ko‘pincha emotsional holatni ifodalaydi. Turk tilidagilar esa ijtimoiy munosabat ma’nosini ilgari surib keladi.

Turk tilshunosligida fitomorf frazeologizmlarning o‘rganilish tarixi umumiy frazeologiya taraqqiyoti bilan uzviy bog‘liq holda shakllangan bo‘lib, dastlabki bosqichlarda bu birliklar alohida obyekt sifatida emas, balki umumiy turg‘un birikmalar tarkibida o‘rganilgan. XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab turk tilshunosligida frazeologik birliklarga bo‘lgan e’tibor kuchayib, ularning semantik, struktur va funksional xususiyatlarini o‘rganishga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlar yuzaga keldi. Shu jarayonda o‘simlik komponentli frazeologizmlar ham alohida tahlil obyektiga aylana boshladi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, turk tilshunosligida fitomorf frazeologizmlar dastlab leksikografik manbalar — izohli va frazeologik lug'atlar orqali tizimlashtirilgan bo'lsa, keyinchalik ular lingvosemantik, lingvokulturologik va kognitiv yo'nalishlarda chuqurroq o'rganila boshlagan. Ayniqsa, turk olimlari tomonidan frazeologizmlarning milliy-madaniy xususiyatlarini ochib berishga alohida e'tibor qaratilgan bo'lib, o'simlik nomlari orqali ifodalangan obrazlar xalqning tabiat bilan bog'liq dunyoqarashini aks ettiruvchi muhim vosita sifatida talqin etilgan<sup>17</sup>.

Shuningdek, zamonaviy bosqichda fitomorf frazeologizmlar kognitiv tilshunoslik doirasida ham tahlil qilinib, ularning metaforik modellari, konseptual asoslari va semantik maydonlari aniqlanmoqda. Bu esa o'simlik nomlari asosida yuzaga kelgan frazeologik birliklarning inson tafakkuridagi konseptual tizim bilan bog'liqligini ko'rsatadi<sup>18</sup>. Natijada fitomorf frazeologizmlar nafaqat til birligi, balki madaniy kod sifatida ham talqin qilinmoqda.

### **XULOSA**

Turk tilshunosligida fitomorf frazeologizmlarning o'rganilishi evolyutsion xarakterga ega bo'lib, u oddiy tavsifiy yondashuvdan zamonaviy lingvokulturologik va kognitiv tahlil bosqichigacha rivojlangan. Bu esa mazkur birliklarni kompleks o'rganish zaruratini ko'rsatadi va ularning semantik hamda konseptual xususiyatlarini yanada chuqurroq tadqiq etish uchun mustahkam ilmiy asos yaratadi.

Fitomorf frazeologizmlar tilning frazeologik tizimida alohida semantik guruhni tashkil etib, ularning asosida o'simlik olamiga oid nominatsiyalar yotishi aniqlandi. Bu birliklar nafaqat nominativ, balki kuchli ekspressiv-obrazli vosita sifatida ham namoyon bo'ladi. Fitomorf frazeologizmlarning shakllanishi va rivojlanishi bevosita inson tafakkuri, tabiatni idrok etish jarayoni hamda metaforik tafakkur bilan chambarchas bog'liq ekani asoslandi. O'simlik nomlari orqali insonning tashqi ko'rinishi, ichki kechinmalari, xulq-atvori va ijtimoiy munosabatlari obrazli tarzda ifodalanadi.

Mazkur frazeologik birliklarning nazariy asoslari frazeologiya, semantika, kognitiv tilshunoslik va lingvokulturologiya yo'nalishlari kesishmasida shakllanishi aniqlanib, ularni o'rganishda integrativ yondashuv muhim ahamiyat kasb etishi ko'rsatildi. Fitomorf frazeologizmlarning semantik tuzilishi ko'p qatlamli bo'lib, unda denotativ, konnotativ va obrazli komponentlar o'zaro uyg'unlashgan holda namoyon bo'lishi ilmiy asoslandi. Ayniqsa, konnotativ ma'no ularning milliy-madaniy xususiyatlarini ochib berishda yetakchi omil sifatida xizmat qiladi.

<sup>17</sup> Aksan, Doğan. *Her Yönüyle Dil: Ana Çizgileriyle Dilbilim*. Ankara: Türk Dil Kurumu Yayınları. 2000. -S.125

<sup>18</sup> Vardar, Berke. *Açıklamalı Dilbilim Terimleri Sözlüğü*. İstanbul: Multilingual Yayınları. 2003. -S.39

Fitomorf frazeologizmlar xalqning tarixiy tajribasi, urf-odatlarini, dunyoqarashi va estetik qarashlarini aks ettiruvchi muhim lingvokulturologik birliklar sifatida baholandi. Shu bois ular til orqali milliy mentalitetni o'rganishda muhim manba hisoblanadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Aksan D. Her yönüyle dil: ana çizgileriyle dilbilim. – Ankara: Türk Dil Kurumu Yayınları, 2000.
2. Aksoy Ö. A. Atasözleri sözlüğü. – Ankara: TDK Yayınları, 1984.
3. Ахметова Э. Названия овощей и фруктов в татарском языке: автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Казань, 2012.
4. Бурганова Н. О татарских народных названиях растений // Вопросы лексикологии и лексикографии. – Казань, 1976.
5. Vardar V. Açıklamalı dilbilim terimleri sözlüğü. – İstanbul: Multilingual Yayınları, 2003.
6. Дмитриева Ю. Названия деревьев в чувашском языке // Проблемы исторической лексикологии чувашского языка. – Чебоксары, 1980.
7. Дмитриева Л. Названия растений в тюркских и других алтайских языках // Очерки сравнительной лексикологии алтайских языков. – Ленинград, 1972.
8. Ефремов А. Названия растений марийского языка (травянисто-ягодная флора): автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Тарту, 1986.
9. Загуляева Б. Названия растений в удмуртских диалектах // Вопросы диалектологии и лексикологии удмуртского языка. – Ижевск, 1990.
10. Калиев Б. Названия растений в казахском языке: автореф. дис. ... д-ра филол. наук. – Алма-Ата, 1991.
11. Кошғарий М. Девону луғотит турк: в 3 т. – Тошкент: Фан, 1960–1963.
12. Никитин В., Кербабоев Б. Народные и научные туркменские названия растений. – Ашхабад: Наука, 1962.
13. Torun Öğretmen Y. Bölge ağızlarında atasözleri ve deyimlerde bitki bilimiyle ilgili söz varlığı // Çukurova Üniversitesi Türkoloji Araştırmaları Dergisi. – 2024.
14. Усланова Е. М. Фитоморфная метафорика в религиозном дискурсе (на материале «Сокровища духовного, от мира собираемого» Тихона Задонского) // Вестник Костромского государственного университета. – 2017.